

**Ta'lim sifatini oshirish uchun islohotlar**

***Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi***

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining xorijiy til va adabiyoti  
fakulteti. 2-bosqich talabasi*

***Ilmiy rahbar: Mamanabiyeva Shaxrizoda Sharofidin qizi***

*O'zDJTU Ingliz tili ikkinchi fakulteti Ingliz tili amaliy fanlar N2 kafedrası  
o'qituvchisi*

***ANOTATSIYA:*** *Siz ushbu maqolani o'qish davomida hozirgi kundagi ta'lim faoliyati, ayrim muammolar va ularga yechimlar, ta'limni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va bu boradagi yutuqlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.*

***Kalit so'zlar:*** *davlat xizmati, Yosh kitobxon, islohat, projekt, siyosat, 5 muhim tashabbus, ta'limotlar, soha,*

Ta'lim- davlatning ustuvor bir bo'lagidir ya'ni kelajak poydevoridir. Chunki kelajagimiz bo'lgan yoshlarni to'g'ri yo'nalishda o'qitilishi, tarbiya berilishi barchasidan ustundir. Shu sababli ta'lim sohasi kerakli va muhim hisoblanadi.

Yaqin kunlarda bu sohaga e'tibor ancha oshdi. Yangi va foydali loyihalar ishlab chiqildi, ularni amalga oshirish uchun bir qator muhim shaxslar amallarni bajarishdi. Ilmiy ishlar olib borildi. Islohotlar o'z samarasini ko'rsata oldi. Eng avvalo,

1 Yoshlarni to'g'ri yo'nalishda ta'lim olishini ta'minlandi. Chunki bu aynan og'riqli tomon

2 Ularning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga qaratilgan maxsus qo'shimcha darslar tashkil etildi.

3 Barchasi uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Mana shu ta'limotlar asosida yoshlarga imkoniyatlar berildi.

Shulardan biri bu yosh kitobxon tanlovini aytib o'tish mumkin.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “5 tashabbus loyiha ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakat taraqqiyotining yangi davrida yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o‘z qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘tgan davr mobaynida yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, ular hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan qonun, farmon va qarorlar qabul qilingani mamlakatimizda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashga huquqiy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yoshlarimizga ham ta‘lim ham tarbiya beradigan ustozlar ham talaygina. Ya‘ni aynan shu narsaning ikkisi birda bo‘lishi bizning eng kerakli yutug‘imiz aslida. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va bevosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, keyingi 7 yilda yoshlar siyosati samaradorligiga oid jami 100 ga yaqin qonun va qonunosti hujjatlari, jumladan, 2016 yil 14 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonuni qabul qilindi. 2017 yil 30 iyunda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilib, uning asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. O‘z navbatida, Prezident taklifiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to‘g‘risida” gi qonun bilan 30 iyun – “Yoshlar kuni” deb e‘lon qilindi. Bundan ham aniq va ravshan bo‘ladiki, yoshlarning qo‘lidan barchasi keladi va faqat ular harakat qilib imkoniyatlardan

foydalanib amaliyotda qo'llashsa barchasiga erisha olishadi. Bu aniq davlatimiz rahbari tomonidan doim yoshlarga motivatsiya beriladi. Demak, har bir yosh kadr doim harakatda bo'lishi kerak va shart.

Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodusiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi globallashtirish davrida yoshlar tarbiyasi va ongiga tahdidlar tobora kuchaymoqda. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir" deya ta'kidlagan. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrleydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi". Yoshlarga bo'lgan e'tibor davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar markazida ekanligi alohida e'tirofga molikdir.

Lekin ma'naviy targ'ibotning qamrovi va ta'sirchanligi pastligi, yoshlarning qiziqishlari inobatga olinmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Shu bois Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilib, ularga sog'lom fikr beradigan manbalarni ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Umuman, bu sohadagi davlat siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston yoshlari" dasturini ishlab chiqish, qonunchilikni o'zgartirish vazifalari belgilandi. Islohatlardan so'ng iqtidorli kadrlarimiz yaxshi natijalarga

erishib kelmoqda. Chet eldan tajriba orttirib kelib , davlatimiz hududida targ'ib etib, sohalar rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. Bu o'z navbatida, nafaqat ta'lim sohasida boshqa meditsina, sport, savdo , tadbirkorlik, san'at va madaniyatimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu bizning yana bir yutuqlarimizdan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--yoshlarga-yangi-imkoniyatlar>
- 2 <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-yoshlar-uchun-keng-imkoniyatlar-diyori>
- 3 <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yoshlariga-yaratilayotgan-yangi-imkoniyatlar-renessans-poydevori>
- 4 <https://president.uz/oz/lists/view/6145>
- 5 <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0020/2.2.pdf>